

Jurnal 2024-yildan boshlab filologiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining №072250 raqamli guvohnomasi asosida dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: OBIDJON XAMIDOV, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

Bosh muharrir o'rinbosari: DILRABO QUVVATOVA, filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

Mas'ul kotib: NAFOSAT O'ROQOVA, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'zbekiston)

IBODULLA MIRZAYEV,
filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

JUMAQUL HAMROH,
filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

DARMONOY O'RAYEVA,
filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

NURBOY JABBOROV,
filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

NURALI NUROV,
filologiya fanlari doktori,
professor (Tojikiston)

SALIMA MIRZAYEVA,
filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

SHAVKAT HASANOV,
filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

NURETTIN DEMIR,
Pr. Dok. (Turkiya)

ALFIYA YUSUPOVA,
filologiya fanlari doktori
(DSc), professor (Rossiya)

FUNDA TOPRAK,
Pr. Dok. (Turkiya)

NIZOMIDDIN MURODIY,
filologiya fanlari doktori,
professor (Tojikiston)

OLAF GUENTHER,
Filologiya fanlari doktori,
Leypsig universiteti
(Germaniya)

ALBINA HAAS,
MA., Myunster universiteti
Germanistika instituti dotsenti
(Germaniya)

G'AYRAT MURODOV,
filologiya fanlari doktori
(DSc), professor
(O'zbekiston)

SHOIRA AXMEDOVA,
filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

MEHRINISO ABUZALOVA,
filologiya fanlari doktori
(DSc), professor
(O'zbekiston)

ZEBO QOBILOVA,
filologiya fanlari doktori
(DSc) (O'zbekiston)

DILSHOD RAJABOV,
filologiya fanlari doktori
(DSc), professor
(O'zbekiston)

HUSNIDDIN ESHONQULOV,
filologiya fanlari doktori
(DSc), professor
(O'zbekiston)

MA'RIFAT RAJABOVA,
filologiya fanlari doktori
(DSc), professor
(O'zbekiston)

QAHRAMON TO'XSANOV,
filologiya fanlari doktori
(DSc), professor
(O'zbekiston)

ZUBAYDULLO RASULOV,
filologiya fanlari doktori
(DSc), professor
(O'zbekiston)

MAQSUD ASADOV,

filologiya fanlari doktori
(DSc), professor
(O'zbekiston)

BAXTIYOR

FAYZULLOYEV,

filologiya fanlari nomzodi,
dotsent (Tojikiston)

HILOLA SAFAROVA,

filologiya fanlari nomzodi,
dotsent (O'zbekiston)

SAIDA NAZAROVA,

filologiya fanlari nomzodi,
dotsent (O'zbekiston)

BAYRAMALI QILICHEV,

filologiya fanlari doktori
(DSc), professor
(O'zbekiston)

DILOROM

YO'LDOSHEVA,

filologiya fanlari doktori
(DSc)i, professor
(O'zbekiston)

ZILOLA AMONOVA,

filologiya fanlari doktori
(DSc), dotsent (O'zbekiston)

NAFISA

G'AYBULLAYEVA,

filologiya fanlari doktori
(DSc), dotsent (O'zbekiston)

MUBORAK XAMIDOVA,

filologiya fanlari doktori
(DSc), dotsent (O'zbekiston)

JEREN MIZRABOVA,

filologiya fanlari doktori
(DSc), dotsent (O'zbekiston)

YARASH RO'ZIYEV,

filologiya fanlari doktori
(DSc), dotsent (O'zbekiston)

OTABEK NOSIROV,

filologiya fanlari
bo'yicha

falsafa doktori (PhD)

(O'zbekiston)

ZARNIGOR SOBIROVA,

filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent
(O'zbekiston)

SADOQAT

MAXMUDOVA,

filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent
(O'zbekiston)

NODIR RO'ZIYEV,

filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)
(O'zbekiston)

NODIRA XOLIQOVA,

filologiya fanlari nomzodi,
dotsent (O'zbekiston)

RO'ZIGUL QODIROVA,

filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)
(O'zbekiston)

TO'XTAMUROD RAJABOV

filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent
(O'zbekiston)

JAMOATCHILIK KENGASHI

Jamoatchilik kengashi raisi:

TO'LOQIN RASULOV,

fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

Jamoatchilik kengashi raisi o'rinbosari:

ERGASH QILICHEV,

filologiya fanlari nomzodi, professor (O'zbekiston)

Jamoatchilik kengashi:

MUSLIHIDDIN MUHIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

MAHMAYUSUF IMOMZODA,

filologiya fanlari doktori, akademik (Tojikiston)

NAFAS SHODMONOV,

filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

SHAVKAT HAYITOV,

filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

SHODMON SULAYMONOV,

filologiya fanlari nomzodi (O'zbekiston)

GULMUROD ZARIPOV,

texnika fanlari nomzodi, professor (O'zbekiston)

BIBISH JO'RAYEVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)

LAYLO SHARIPOVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)

NAZORA BEKOVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

ATOULLO AXMEDOV,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

GULI TOIROVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

LOLA NE'MATOVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)

BASHORAT JAMILOVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

MUHARRIRLAR:

SHOHSANAM DAVRONOVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

RA'NO RAJABOVA,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

IXTIYOR KAMOLOV,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MEHRIGIYO SHIRINOVA,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TEXNIK MUHARRIRLAR:

NASIMA Qodirova, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

NIGORA Sayfullayeva, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUSAHHIHLAR:

DILDORA Nazarova

SARVINOZ Raximova

Ustod Ayniy tarixnavislikda iste'dodli adib-u, yozuvchilikda tarixning ulug' bilimdoni edi. U xalqimiz o'tmishini xuddi o'zi yashayotgan zamonday mukammal bilar, bilganlarini esa badiiyat libosiga shu qadar ustakorona o'rab tasvirlardiki, undan zamon ruhi va chaqirig'i butun borlig'icha ufurib va jaranglab turardi. Uning qalami tarixdagi har bir nuqtadan jonli obraz yaratishga mohir edi.

Oxunjon Safarov,
filologiya fanlari doktori, professor

Hech ikkilanmay aytish joizki, Ayniy ijodiyoti XX asr dunyo adabiyotining eng nodir, eng e'tiborli va eng mazmundor sahifalaridan hisoblanadi. Ayniy badiiy ijodining poydevori ilm, ma'rifat, tarix, hayot va haqiqatdir. Ayniy asarlarini bilish ko'hna Sharq tarixi, madaniyati, mumtoz adabiyoti va milliy qadriyatlarini anglashga yo'l ochadi.

Ibrohim Haqqul,
filologiya fanlari doktori, professor

*Rajabova Marifat Bakoyevna,
Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori.
(O'zbekiston)
E-mail: marifat.bakaeva@mail.ru*

ALISHER NAVOIY IJODIDA DARVESH OBRAZI

Annotatsiya. Maqolada mutafakkir shoir Alisher Navoiy g'azaliyotida badiiy talqin qilingan darvesh obrazining ma'naviy va estetik xususiyatlari o'rganilgan. Sharq adabiyotida nafsni tarbiyalash, moddiy dunyo ne'matlariga ko'ngil qo'ymaslik kabi tasavvufiy g'oyalar darvesh siymosi orqali badiiy talqin qilingan. Shu bilan birga darvesh va shoh qarama-qarshiligi orqali ijtimoiy-axloqiy muammolar tasvirlangan. Pahlavon Mahmud ruboiylarida, Ahmad Yasaviy hikmatlarida, Alisher Navoiy g'azallarida darveshlik kambag'allik emas, balki komilliklikning belgisi sifatida talqin etiladi.

Mazkur maqolada ulug' shoir Alisher Navoiyning "Har gadokim, bo'ryoyi faqr erur kisvat anga" misrasi bilan boshlanuvchi g'azali tahlil qilingan. Tahlil jarayonida darvesh obrazini badiiy talqin qilishda daho ijorkorning mahoratiga baho berilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, shoh, darvesh, gado, tasavvuf, siyrat, adolat, sidq, Husayn Boyqaro, zohir va botin, himmat.

Abstract. The article studies the spiritual and aesthetic characteristics of the image of the dervish, which is artistically interpreted in the ghazals of the thinker poet Alisher Navoi. In Eastern literature, mystical ideas such as cultivating the soul and not caring about the blessings of the material world are artistically interpreted through the image of the dervish. At the same time, socio-moral problems are depicted through the contrast between the dervish and the king. In the rubais of Pahlavan Mahmud, the wisdom of Ahmad Yasawi, and the ghazals of Alisher Navoi, dervishness is interpreted not as poverty, but as a sign of perfection.

This article analyzes the ghazal of the great poet Alisher Navoi, which begins with the line "Har gadokim, boryoyi faqr erur kisvat anga". In the process of analysis, the skill of the genius entrepreneur in the artistic interpretation of the image of the dervish was assessed.

Keywords: Alisher Navoi, king, dervish, beggar, mysticism, syrat, justice, sidq, Husayn Boykara, zahir va batin, commitment.

Аннотация. В статье исследованы духовные и эстетические особенности образа дервиша, художественно трактуемого в газелях поэта-мыслителя Алишера Навои. В восточной литературе такие идеи тасаввуфа, как укрощение страсти, отречение от благ материального мира, художественно интерпретированы имеено через образ дервиша. Наряду с этим через противостояние дервиша и правителя изображаются социально-нравственные проблемы. В рубаи Пахлавона Махмуда, в изречениях Ахмада Ясави, в газелях Алишера Навои дервишество трактуется не как нищета, а как признак совершенства.

В данной статье анализируется газель великого поэта Алишера Навои, начинающаяся со строки – *Хар гадоким, бӯрӯйи фақр эрур кисват анга*". В процессе анализа оценивается мастерство поэта-гения в художественной интерпретации образа дервиша.

Ключевые слова: Алишер Навои, правитель, дервиш, нищий, тасаввуф, образ, справедливость, искренность, Хусейн Байкара, явное и внутреннее, щедрость.

Kirish. Sharq adabiyotida darvesh obrazi o'ziga xos ma'naviy-estetik xususiyatga ega bo'lib, uning shakllanishi, avvalo, islom ma'rifati va tasavvuf ta'limoti bilan chambarchas bog'liqdir. Tasavvufning asosiy g'oyalari – nafsni poklash, ruhiy kamolga yetish, dunyoviy manfaatlardan voz kechish kabi g'oyalar darvesh obrazining ma'naviy asosini tashkil etadi. Bu g'oyalar VIII-IX asrlarda shakllangan va adabiyotda tasavvufiy yo'nalishni yuzaga keltirgan. Biroq darvesh obrazining ildizlari faqat tasavvuf ta'limoti bilan cheklanmaydi. Uning asoslari xalq og'zaki ijodi, xususan, afsona, rivoyat, dostonlarda ham uchraydi. Xalq ichida yashab kelgan ko'plab rivoyat va qahramonlik eposlarida darvesh yoki shu obrazga yaqin bo'lgan personajlar – chiltan, eran, qalandar kabilar uchraydi. Ushbu obrazlar adabiy-tarixiy manbalarda va xalq epik an'anasida maxsus vazifa, ramziy ma'noga ega bo'lib, ularning

ko'pgina xususiyatlari darvesh timsoli bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Bu bog'liqlilik, avvalo, chiltan, eran va qalandar obrazlarining darvesh timsoli bilan ma'naviy, falsafiy va funksiyaviy jihatdan yaqinligida ko'rinadi. Ularning barchasi insonlarga *yo'l ko'rsatadi, himoya qiladi, ruhiy ozodlikka chorlaydi*. Bu obrazlar tasavvufiy qarashlar bilan uyg'un holda, xalq dunyoqarashining bir qismi sifatida shakllangan. Ular darvesh obrazining ilk xalqona ko'rinishlarini ifoda etib, keyinchalik islomiy-ma'rifiy muhitda mukammal adabiy timsolga aylangan.

“Darvesh” so'zi Sharq mumtoz she'riyatida ko'p qo'llangan obraz sanaladi. Mazkur so'zning gnezisi haqida turli fikrlar bildirilgan. Jumladan, darvesh so'zi forscha, “eshik oldi” ma'nosini bildiruvchi “der- pišten” (“dar” (eshik) + “vish” (izlovchi) → “dargoh izlovchi”) so'zidan kelib chiqqanligi ta'kidlanadi [3]. “Darvesh” so'zi fors tilida “tilanchi”, “gado” degan ma'nolarni ham bildirgan. Lug'atlarda “darvesh” so'fiylik tarafdori, kambag'al kishi deb ta'riflanadi. Doktor Saidja'far Sajjodiyning fikricha, “darvesh dunyoga va unga aloqador barcha narsalarga befarq bo'lgan kishidir” [6, 383]. Azizuddin Nasafiyning ta'kidlashicha, “Odamlarning eng donishmandlari darveshlik bilan ixtiyoriy shug'ullanib, ongli ravishda mahrumlikni tanlagan darveshlardir” [4, 35].

“Navoiy asarlarining izohli lug'ati”da darvesh so'zi quyidagi ma'nolarda qo'llangan. 1. Benavo, qashshoq, faqir, gado. 2. Qalandar, zohid, tarki dunyo qilgan kishi; pok, sofdil.

Vaqt o'tishi bilan darvesh so'zining lug'aviy ma'nosi orqali ifodalangan ma'no o'zgarib borgan. O'zbek mumtoz adabiyotida “darvesh” so'ziga sinonim sifatida *faqir, zohid, qalandar, sufiy, va orif* kabi so'zlar ishlatilgan. Ularning barchasi muayyan ma'naviy holatni ifoda etsa-da, badiiy matnda ular **bir-biri bilan almashinib qo'llagan**. Bu so'zlar orqali ijodkorlar ruhiy tarbiya, nafsni jilovlash, kamtarlik, va ma'rifat yo'lidagi inson siymosini badiiy talqin qilganlar.

Darvesh so'fiylik ta'limotida “faqr”, “zohid” so'zlarining sinonimi sifatida qo'llangan. Darvesh ramziy ma'noda “*Xudo eshigida tilanchilik qiluvchi*”, ya'ni ilohiy haqiqat izlovchilardir. Ularning o'ziga xos yashash tarzi mavjud bo'lgan. Darveshlar zuhdga alohida e'tibor qaratganlar. Ya'ni *ovqatlanish, ichish, gapirish va uxlash* kabi amallarni *ibodat, zikr va tafakkur, o'zini boshqarish* kabi amallar bilan almashtirganlar. Bu esa ularni “intizomli” yashashga, ma'naviy kamolotga erishishda sabr-toqatli bo'lishga yordam bergan. Darveshlar ma'naviy kamolotga erishishning yana bir yo'li sifatida “sayohat”ga alohida e'tibor qaratganlar. Bunday sayohatdan maqsad ruhni tarbiyalash, Allohning amriga ergashishdir. Darveshning sayri, aslida moddiy dunyodan ma'naviy dunyoga o'tishdir.

Darveshlar odatda tashqi ko'rinish va kiyimga ahamiyat bermaydilar. Ular uchun “ich”ning yaxshi ko'rinishi muhimdir. Ular qanoatli, ortiqcha kiyim boshga yoki ortiqcha luqmaga ehtiyoj sezmaydilar. Darveshlik (qashshoqlik)dan shaxsiy manfaat uchun foydalanmaydilar. Uning yuragi boy, qo'li ochiq. U boy bo'lsa ham, uning qalbida boylikka ehtiyoj yo'q. Darvesh kaltaklaganlarga qarshi qo'lsiz va la'natlaganlarga soqovdir. U Yaratganning roziligi uchun Yaratilganlarga toqat qiladi.

Islom ta'limotidagi darveshlar – nafaqat zohidlar, balki ruhiy poklik va ma'naviy erkinlikning ramzi sifatida namoyon bo'lgan shaxslardir. Ular o'z hayotlarini moddiy dunyoviy manfaatlardan voz kechib, Allohga yaqinlashish, ichki osoyishtalik va axloqiy mukammallikka erishish yo'liga bag'ishlaydilar.

Asosiy qism. Darveshlarga xos bo'lgan Allohga muhabbat, zohidlik, dunyo boyligini rad etishdan iborat asosiy dunyoqarash Sharq adabiyotining o'zak mavzularidan biri sanalgan. Darveshlarga tarixiy jihatdan qarovsiz, mulksiz va muhtoj shaxs sifatida qaralgan bo'lsa-da, tasavvuf adabiyotida ular ko'pincha hayot haqiqatini anglagan, keng dunyoqarashga ega inson siymosida tasvirlangan. Fikrimizni Pahlavon Mahmud qalamiga tegishli quyidagi ruboiyda ham tasdiqlaydi.

Ulusga qayg'urur shoh emas, darvesh,
Zero u darveshdir, darveshdir, darvesh.
Buzuq devorlardan tashvish bor, lekin,
Siniq ko'ngullardan ko'proqdir tashvish [5].

Birinchi misrada muallif jamiyat (ulus) uchun chin dard chekuvchi, haqiqiy qayg'uruvchi shaxs shoh emas, balki darvesh ekanini ta'kidlaydi. Bu o'rinda shoh – hukmronlik, dunyoviy kuch va davlat timsoli bo'lsa, darvesh – ruhiy poklik, odamiylik va ilohiy muhabbat timsolidir. Ikkinchi misrada “darvesh” so'zining uch marta takrorlanishi (anafora) fikrni kuchaytirish uchun xizmat qilgan. Shu orqali

darveshning ma'naviy ustunligini, yuksakligi hamda samimiyligiga urg'u berilgan. Bu tavsif orqali darvesh nafaqat kamtarin zot, balki el qalbini his qiluvchi ilohiy zot sifatida namoyon bo'ladi.

Shoir ikkinchi baytda darvesh qiyofasini badiiy talqin qilishda "buzuq devor" hamda "sinuq ko'ngil" ramzlaridan juda o'rinli foydalangan. Bu ikki razmlar bir – biriga qarama qarshi. "Buzuq devorlar" jumlasini jamiyatdagi moddiy tanazzul, ya'ni binolar, shahar, tuzumdagi muammolarni anglatadi, "sinuq ko'ngillar" – inson ruhiyatidagi sinish, ya'ni ma'naviy inqirozga ishoradir. Tasavvuf an'analari Alloh nazdida inson qalbi "Allohnin uyi" sifatida talqin qilinadi. Demak, darvesh uchun "sinuq devor"lardan ham "sinuq ko'ngil" muhim. Chunki unda Yaratganga yo'l bor.

Ko'rinib turibdiki, Pahlavon Mahmud ruboiysida muhim ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy g'oya ilgari surilgan. Uning fikricha, jamiyatdagi eng katta inqiroz – moddiy emas, ma'naviy tanazzuldir. Shu bois darveshga ehtiyoj bor: u mana shu sinuq ko'ngillarni "ta'mir" qiladigan ma'naviy me'mordir.

Ko'rinib turibdiki, ruboiyda shoh va darveshning manfaatlari bir – biriga qarama-qarshi qo'yiladi. Shoh va darveshning farqi ham shunda. Shoir dunyoviy manfaatlar bilan ma'naviy qadriyatlar o'rtasidagi muammolarni shoh va darvesh qiyofasida ko'rsatadi. Darvesh uchun "ulusning qayg'usi" muhim. Uning uchun "sinuq ko'ngil" moddiy dunyodan ustun.

Tariqatdur bu yo'l otin bilsa darvesh,
Ma'rifatni mato'idin olsa darvesh.
O'zga yo'llar bodu havo sonsa¹ darvesh,
Ma'rifatni maydonida er ul bo'lur [2, 65].

Ahmad Yassaviyning mazkur hikmatida so'filylikdagi ma'naviy yuksalish yo'li – **tariqat, ma'rifat va haqiqat** pog'onalari orqali ifodalanadi. Bu yo'lda harakat qiluvchi "darvesh" timsoli zohiriy emas, balki botiniy kamolotga intilish bilan tavsiflanadi.

Hikmatda darveshning ma'naviy yo'li haqida fikr yuritilgan. Tariqat yo'liga kirgan darvesh Ilohni anglash ma'rifatiga erishadi. Agar darvesh Allohni anglash ma'rifatidan huzurlansa, demak, haqiqiy erandir. Bu yerda "darvesh" faqat zohiriy kiyimi yoki jismoniy holati bilan emas, balki botiniy bilimi va ruhiy kamolotga erishgan shaxs sifatida talqin etilgan.

Birinchi satrda "**Tariqatdur bu yo'l otin bilsa darvesh**" deyish orqali ma'naviy yo'lning asosiy sharti – uni ilmiy, zehniy va qalb bilan anglash zarurligi ta'kidlanadi. Bu yerda "otin bilish", ya'ni ichki ma'nolarni fahmlash, tasavvufning nazariy va amaliy asoslariga yetishish nazarda tutilgan. Darvesh nafaqat zohiriy kiyimi bilan, balki ruhiy ilm, qalb pokligi va irodasi orqali bu yo'lga loyiq bo'ladi.

Ikkinchi misradagi "ma'rifat" so'zi botiniy ilm, Allohning tajalliysini anglash kabi ma'nolarni bildiradi. "Mato" so'zi dunyoviy boylik emas, balki qalbga berilgan ruhiy bilim, ilohiy idrok ramzi sifatida qo'llangan. "Ma'rifatning matoi"dan ulush olgan darvesh ilohiy haqiqatni angalash shaxsdir.

Yassaviy uchinchi satrda har qanday "**o'zga yo'l**" – nafs istaklariga asoslangan, puch va muvaqqat ekanini ta'kidlaydi. Haqiqiy darvesh bunday yo'llarni "bod-u havo", ya'ni shubhali va beasos deb biladi. U moddiy manfaatdan, dunyoviy maqsaddan voz kechib, ma'naviy haqiqatga intiladi.

Oxirgi satrdagi "maydon" – ma'rifat sinovlari. Unda haqiqiy "er" – botinini sof, nafsni yenggan va haqiqatga yetgan inson maqomida bo'ladi.

"Devoni lug'atit turk" muallifi Mahmud Koshg'ariy "eran" "er" so'zining ko'pligi ekanligini ta'kidlaydi va mazkur so'z "erkaklar", "bahodirlar" ma'nosini anglatishini ta'kidlaydi. Tasavvufshunos olim I.Haqqulovning ta'kidicha, "Bizning taxminimizga ko'ra, erkak singari er, eran so'zi ham erk so'zidan tug'ilgan. Chunki erkdan mahrum, hurlikdan yiroq kimsalarni haqiqiy erkak, ozod shaxs deb bo'lmagani qo'shish haqiqatga xilofdir" [7]. Ko'rinib turibdiki, Yassaviy hikmatida badiiy talqin qilingan darvesh o'zligini anglagan Allohning mukarram xilqati sifatida Uning bilan yaqinlashish uchun "to'g'ri yo'ldan" yurgan komil insondir timsolidir.

Alisher Navoiyning "Munshaot" va "Mahbub ul-qulub" kabi asarlarida darveshlikni afzal sifat sifatida tilga olinadi. U darveshlarni "sohibi dil" egasi sifatida talqin qiladi. Ularni dunyoviy boylikka emas, ma'naviy yuksalishga intilayotgan zotlar sifatida tavsiflaydi. Shuningdek, Navoiy ijodida darvesh siymosi hokim shaxslar uchun namuna sifatida ko'rsatiladi. Daho shoirning qayd etishicha, adolatli hukmdor ham qalban pok bo'lishi, kibr va hirsdan xoli bo'lishi kerak. Xuddi shunday g'oya ulug'

¹Sonsa-sanasa

shoirning “Badoyi’ ul-bidoya” devonining 9-tartib raqami ostida berilgan “Har gadokim, bo’ryoyi faqr erur kisvat anga” misralari bilan boshlanuvchi g’azalida badiiy ifodalangan.

Alisher Navoiy ijodiga xos bo’lgan xususiyatlardan biri shundaki, shoir o’zi yoritmoqchi bo’lgan g’oyaning mohiyatini oydinlashtirish maqsadida mazkur g’oyaning qutbiy jihatini esdan chiqarmaydi. Shuning uchun bo’lsa kerak, Alisher Navoiy g’azallarini ko’zdan kechirganimizda, ularda shoh va gado, shoh va darvesh, shoh va faqr kabi tushunchalarning yonma – yon kelishini ko’ramiz. Alisher Navoiy darveshlarning shoh emas, shohlarning darveshsifat, ya’ni davlat va saltanatga ko’ngil bog’lamasligini, darveshlardek e’tiqodda sobit, ma’naviy qudrat sohibi bo’lishini istaydi. Shundagina shohda mansabparastlik va manfaatparastlik, xudparastlikdan nishon ham bo’lmaydi. Shoh va gado (darvesh) bu mohiyati, maqsadi va muddaosi bir-biriga tamomila zid bo’lgan jamiyatning ikki qutbi – vakilidir. Xo’sh, Alisher Navoiy bu ikki tushunchani yonma – yon keltirishdan maqsadi nima?

Bu savolga javobni “Badoyi’ ul-bidoya” devonining 9-tartib raqami ostida berilgan “Har gadokim, bo’ryoyi faqr erur kisvat anga” misralari bilan boshlanuvchi g’azaldan topishimiz mumkin.

Har gadokim, bo’ryoyi faqr erur kisvat anga,
Saltanat zarbaftidin hojat ermas xil’at anga.
Kim fano tufrog’iga yotib qo’yar tosh uzra bosh,
Taxt uzra emas muzahhab muttako hojat anga.
Shah yurib olam ochar, darvesh olamdan qochar;
Ham o’zung insof bergilkim, bu ne nisbat anga?!
Har ne shah maqsudidur - darveshning mardudidur,
Ko’r, nedur himmat munga, ne nav’ erur holat anga.
Faqr ko’yi tufrog’in shah mulkiga bermas faqir,
Mulk, ko’rkim, teng emas tufrog’ila qiymat anga.
Shah sipah cheksa, faqir ahvolig’a yetmas futur,
Bu vale chekkach nafas, barbod o’lur hashmat anga.
Shoh emastur bir nafas osuda do’zax vahmidin,
Ey xusho darveshkim, mardud erur jannat anga.
Shah sidq ahli damidin mash’ali davlat yorur,
Mehrdekkim, subh anfosi ochar tal’at anga.
Shohg’a shahlik musallamdur, agar bo’lg’ay mudom
Shohlig’ tarkin qilib, darvesh o’lur niyat anga.
Mumkin ermas shahlar ichra buyla niyatlig’, magar
G’oziykim, muyassar bo’ldi bu davlat anga.
Shohlar darveshiyu darveshlar shohiki, bor
Shohlig’ sur’at anga, darveshlik siyrat anga.
To shahu darvesh bo’lg’ay, aylagil, yo rab, ayon
Shohdin xizmat anga, darveshdin himmat anga.
Gar Navoiy so’z uzatti, faqrdin ermas demang,
Bo’lmag’uncha hukm shahdin, qayda bu jur’at anga? [1, 35]

G’azal 13 baytdan iborat. G’azalda shoh va darveshlik o’rtasidagi ziddiyat tadriji rivojlanib boradi. Dastlabki baytdayoq darveshga xos sifatlar ochila boradi. Xo’sh, darvesh kim? Darvesh – dunyo noz-ne’matlaridan qo’l siltagan ma’rifat ahlining peshvosi. U Xudoni sevgan, o’z umrini Iloh sevgisiga bag’ishlagan zot. Xokisorlik va faqrlik unga xos. Uning uchun “faqrlik bo’riyosi” to’shak. Saltanatning zardan tikilgan shohona kisvatiga, ya’ni libosiga unda ehtiyoj yo’q.

Shoir faqrlikni haqiqiy boylik sifatida ulug’laydi. Uning ta’kidlanishicha, agar kishi faqrlikni o’zining libosi (kisvati) qilib olgan bo’lsa, unday insonga podshohlar kiyadigan zarbaft xil’at (liboslar)ga ehtiyoj yo’q. Bu esa “faqr” tushunchasining zohiriy emas, botiniy boylik sifatida talqin qilinganligini ko’rsatadi.

G’azalning ikkinchi baytida shoir fikr tasdig’i sifatida hayotiy bir tamsil – misol keltirish bilan fikrida davom etadi, kitobxonni hushyorlikka chorlaydi. Baytdagi *fano* – yo’qlik, *muzahhab* – zarhal qilingan tilla suvi yuritilgan taxt ma’nosida qo’llangan va asosiy fikr shu ikki so’z zimmasiga yuklatilgan. Fano tuprog’i uzra yotib, toshni yostiq qilib olgan odamga oltin suvi yurgizilgan taxt ustida suyanib o’tirishning keragi yo’q. Chunki bu inson o’z yo’lida Allohga yaqinlikni, ma’naviy ozodlikni tanlagan.

Ulug' shoir bu bilan shunday g'oyani ilgari suradi: haqiqiy kamolot hokimiyat va boylik orqali emas, balki ruhiy tarbiya, fano va xoksorlik orqali vujudga keladi. Fano yo'lidagi inson dunyoviy ziynat va saltanatni xohlamaydi, chunki u ma'naviy jihatdan ulardan ustun turadi.

Alisher Navoiy g'azalning dastlabki ikki baytida darveshning Ollohga muhtoj va niyozmandligini bayon qilsa, keyingi misralarda uni shoh bilan qiyoslaydi. Shoh – davlat sohibi. U foni dunyo oshig'i. Hatto darveshni shohdan ustun qo'yadi. Shohning maqsadi olamni egallash, darvesh esa olamdan qochib, uzlatga yuz buradi. Nimaiki shohning maqsadi bo'lsa, u darveshning nafratini keltiradi. Himmat bobida ham darvesh shohdan ustundir. Qalbi Illoh ishq bilan band bo'lgan darveshning ko'ngligina molu-davlat, toju-taxtdan mosivo bo'ladi.

Shoh va darveshlik o'rtasidagi ziddiyat baytdan – baytga kuchayib boraveradi. Bu, ayniqsa, g'azalning 4-5-baytlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Hatto faqr darveshlik ko'chasining tuprog'ini shoh xazinasiga almashtirmaydi. Chunki darvesh nazarida shohning butun boyligi tuproq bilan tengdir.

Shoir mazkur baytlarda podshoh va darveshni muqoyasa qilib, ularning dunyoviy va ruhiy munosabatini ochib boradi. Podshoh butun olamni egallashga intiladi, u dunyoviy hukmronlik va saltanat ortidan quvsa, darvesh esa aksincha, olamdan qochadi – u nafsdan voz kechib, ruhiy poklikni tanlaydi. Chunki darveshning ruhiy yuksalishga bo'lgan intilishi, himmati shunchalik oliyki, u moddiy olamni butunlay orqada qoldiradi.

Faqir “faqr maskani bo'lmish xoksor tufroq”ni, hatto, podshohlik saltanatiga almashtirmasligini ta'kidlaydi. Bu tufroq zohirda beqadr ko'rinsa-da, faqir uchun u yuksak ma'naviy qadriyatning ramzi hisoblanadi. Tufroq tasavvufda fano – ya'ni nafsdan voz kechish, kamtarlik va ruhiy tozalik ramzi. Shoirning ta'kidicha, dunyoviy mulk hashamatli bo'lishi mumkin, ammo ma'naviy jihatdan u faqr yo'lidagi xokning qiymatiga teng kelolmaydi.

Alisher Navoiy g'azalning keyingi 6-baytlarida mubolag'aning go'zal bir namunasini yaratish bilan o'z fikrini davom ettiradi. Shoh toju taxt ilinjida lashkar tortsa, gadoning ahvoliga putur yetmaydi. Boisi, uning ko'nglida ishqdan bo'lak boylik yo'q. Agar gado oh ursa-chi? Shohning toju taxti, hashamatli saroyidan nishon qolmaydi. Shoh do'zax azobining vahmidan osoyishta yashay olmaydi, darvesh jannatu do'zax vahmidan forig'. Shoir buni “futur yetmas” (**hech qanday o'zgarish, ta'sir qilmaydi**) iborasi bilan beradi. Ya'ni, faqirning botiniy ahvoli, ruhiy yuksakligi shunchalik komilki, hatto podshohining butun zohiriy kuchi – qo'shini, hashamati, hukmronligi – unga ta'sir o'tkaza olmaydi. Balki uning birgina nafasi – ya'ni botiniy kuchi – podshohlik hashamatini yo'qqa chiqarishga qodir. Bu yerda tasavvufiy fano va ma'rifat holatining yuksakligi ta'riflanmoqda, haqiqiy qudrat nafaqat zohiriy kuchda, balki ruhiy tozalik va ma'naviy yuksaklikdadir.

G'azalning yettinchi baytida shoh va darveshga doir qiyoslar davom etadi. Shoir baytda zohiriy shohlik va botiniy ozodlikni muqoyasa qiladi. Shoh shon-shuhrat egasi bo'lsa ham, tinch emas. Chunki u shon-sharaf, mansab, boylik va qudrat tufayli doimiy xavotir, nafs yoki jazo vahmidan qutula olmaydi. Haqiqiy darvesh esa ruhan erkin, oxirat ne'matlariga ham muhtojlik sezmaydi.

Sidq ahli bu haqparast darveshlardir. Ularning muhim sifatlaridan biri rostgo'ylik va adolatlilikdir. Ularning bu sifatlarini ulug' shoir o'ta go'zal tashbehlar bilan bayon qiladi. Darveshlarning rostgo'y nafasi – shohlar davlatining chirog'i, bu nafs go'yo tong yuzini ochgan quyosh kabidir. Bu nafas zohiriy emas, balki ma'naviy nur manbaidir. Podshohning qo'shini, boylik va hashamati aynan sidq ahlining duosi va niyati orqali bardavom bo'ladi.

Shoir bu ruhiy kuchni yanada ta'sirli ifoda etish uchun juda go'zal bir tashbehni qo'llaydi: “**sidq ahlining nafasi go'yo tong yuzini ochuvchi quyoshdek**”. Bu tashbeh shunchaki badiiy ifoda emas – u falsafiy va ma'naviy qiymatga ega. “Subh anfosi” bilan nur tarqalgani kabi sidq ahlining haq so'zi, duosi ham jamiyatga yorug'lik, barkamollik olib keladi.

G'azalning to'qqizinchi baytida **shoh** va **darvesh** obrazlari orqali ikki qarama-qarshi, ammo bir-biriga to'ldiruvchi jamiyat tiplari haqidagi qiyosiy talqinlar yanada davom etadi. **Shoh**, ya'ni dunyoviy hukmdor, jamiyatini boshqaradi. Agar **shoh** o'z davlatini adolat ustiga qurgan bo'lsa, uning hukmronligi bardavom bo'ladi. Ulug' shoir bu bilan eng muhim masalaga ishora qilmoqda: agar shoh saltanat sohibi bo'lsada, uning dunyoga, hashamga ehtiyoji bo'lmasa, shu orqali ma'naviy yo'lga qadam qo'ysa, shunda u ham darveshlik – faqrlik maqomiga erishadi, – degan g'oyani ilgari suradi.

Ma'lumki, Alisher Navoiy o'zining adolatli shoh haqidagi orzularini shoh G'oziy, ya'ni Husayn Boyqaro timsolida mujassamlashtiradi va uni o'sha zamon shohlariga ibrat qilib ko'rsatadi. Shu bilan

birga gʻazalda bu shoh timsolida “shohlikka loyiqlik” masalasini ham oʻrtaga tashlaydi. Shoir agar shohda har vaqt shohlikdan voz kechib, darvesh boʻlish niyati boʻlsa, shohlik unga munosibdir, deydi. Biroq bu niyatning hamma shohlarda yoʻqligi shoirni qiynaydi. Faqatgina shoh Gʻoziy – Husayn Boyqaro bu ulugʻ davlatga munosibdir. Shoh Gʻoziy tashqi koʻrinishi bilan shoh boʻlgani bilan, darveshlik va xoksorlik unga xos. U har qadamda adolatni va insonparvarlikni ustuvor qoʻygan hukmdodir. Chunki u shohlarning darveshiyu, darveshlarning shohidir. U tashqi koʻrinishi shoh boʻlgani bilan, ichki olamiga koʻra darvesh. Alisher Navoiy Husayn Boyqaroni zamon shohlariga ibrat qilib koʻrsatar ekan, boshqa hukmdorlarni ham shunday boʻlishini istaydi.

Gʻazalning oʻn birinchi baytida Alisher Navoiy **zohir (surʼat)** va **botin (siyrat)** tushunchalarini yuksak maʼnaviy va axloqiy nuqtai nazardan badiiy talqin qiladi. Uning fikriga koʻra, haqiqiy shohlik faqat taxt, toj yoki hukmronlikda emas, balki insoniy fazilatlarida, yaʼni ruhiy poklik, adolat, sidq va tavozeʼda namoyon boʻladi. Bu qarash islom tasavvufining asosiy gʻoyalari bilan uygʻunlashadi. Insonning siyrati uning darajasini belgilaydi.

Alisher Navoiy gʻazalning soʻngi baytlarida darvesh shohga emas, shohning darveshga muhtojligini, uning darveshga xizmat qilish kerak, degan ehtirosini baralla aytadi.

Gʻazalning dastlabki baytlarida shoh va darveshlikni bir-biriga qarama-qarshilikda koʻrsatgan shoirning gʻazal soʻngidagi qarashlari oʻzgaradi: shoh-u darveshlik sifatlarining bir shaxsda mujassamlashishini istaydi. Buni Husayn Boyqaro timsolida koʻrsatib beradi.

Xulosa. Umuman, mazkur gʻazaldagi asosiy gʻoya – shohlik va darveshlik oʻrtasidagi ruhiy va axloqiy muvozanat masalasidir. Zohirda shoh, botinda darvesh boʻlish ulugʻ shoirning adolatli podshoh haqidagi orzularidan biri edi. Ana shunday shaxsgina haqiqiy shohlikka munosib, degan fikr gʻazalning markaziy gʻoyasi hisoblanadi.

Alisher Navoiy birgina gʻazalda davrning axloqiy-maʼrifiy, ijtimoiy-siyosiy, ilohiy-irfoniy muammolarini badiiyat libosida goʻzal tasvirlay olgan. Shoh va darvesh ziddiyati zahirida maʼnaviy kamolot sirlarini oʻz oʻquvchisi bilan sirlashadi.

Xulosa qilib aytganda, darvesh obrazi islom mintaqada adabiyotda oʻziga xos ruhiy-axloqiy mafkura bilan bogʻliq ramziy obraz sifatida namoyon boʻladi. Bu obraz tasavvuf taʼlimoti taʼsirida shakllangan boʻlib, adabiyotda insonning ichki kamoloti, maʼnaviy ozodligi va dunyoviy manfaatlardan voz kechishi orqali ilohiy muhabbatga erishish gʻoyasini ifoda etilgan. Ulugʻ shoir Alisher Navoiy lirikasida badiiy talqin qilingan darvesh siymosida ham ana shunday gʻoyalar targʻib qilingan.

ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Badoeʼ ul-bidoya. –T.: Fan, 1987. – 632 b.
2. Yassaviy. Sulaymon Boqirgʻoniy. Hikmatlar. –T.: Oʻzbekiston, 2013. – 600 b.
3. Derviş. İslam Ansiklopedisi. <https://islamansiklopedisi.org.tr/dervis>
4. Nasafī Azizuddin. Insoni komil. – Tehron, 1944. – 468 b.
5. Pahlavon Mahmud. Ruboiylar. Toʻxtasin Jalolov. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/pahlavon-mahmud-ruboiylar->
6. Saʼqodī Sayid ʻQaʼfar. Farhangi istilohot va taʼbiroti irfonī. –Tehron. – Intishoroti Tuhurī, 1370. – 383 b.
7. Haqqulov I. Navoiy sheʼriyatida er va eran obrazi. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/ibrohim-haqqul-navoiy-sheʼriyatida-er-va-eran-obrazi.html>

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
SADRIDDIN AYNIIY HAYOTI VA IJODIGA DOIR TADQIQOTLAR			
1	Раҳимкулов Ғайрат Норқўчқорович, Равзатуллоева Сония Фарҳод қизи	Мавқеъ ва махсусияти лексикаи ифодакунандаи касбу кор дар “Ёддоштҳо”-и Садриддин Айний	6
FOLKLORSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI			
2	Тўхсанов Қаҳрамон Раҳимбоевич, Боймуродов Бехруз Қудратзода	Таъсири адабиёти форсу тоҷик дар эҷодиёти – Фонй	12
3	Safarova Hilola Oxunjonovna, Yuldasheva Parvinabonu Nodirovna	Hamza she’rlarida Luqmoni Hakim timsoli	17
4	Rajabova Marifat Bakoyevna	Alisher Navoiy ijodida darvesh obrazi	21
5	Amonova Zilola Qodirovna Asxatova Diyoraxon Akmal qizi	“Layli va majnun” dostonida Abdurahmon Jomiy madhi	27
6	Davronova SHohsanam G‘aybulloyevna	Tarixiy voqelik tasviri va yozuvchining badiiy mahorati (isajon sulton hikoyalari asosida)	31
7	Джураева Зулхумор Раджабовна	Ядерная зона номинативного поля концепта “женщина /ayol” в русском и узбекском языках	37
8	Турсунова Насиба Ҳамроевна	Ўзбек иримларининг тарихий асослари	42
9	Shukurova Sabohat Odilovna	Jahon adabiyotida suitsid. Egoistik va anomistik xudkushlik	46
10	Namozova Zilola Bozorovna Guliyeva Durdona Shuxrat qizi Sultanova Raisa Xayrullayevna	Rog‘ib va uning “laziz” radifli g‘azali: tabdil va tahlil	50
11	To‘rayeva Laylo Omonovna	Ubaydulla Solih o‘g‘li Zavqiy ijodining o‘ziga xos xususiyatlari	55
12	Barotova Mubashira Barotovna	XX asr ingliz, rus va o‘zbek shoirlari ijodida sinkretizatsiyaning aks etishi	61
13	Jamolova Zilola Nizomovna	Adabiyotning ko‘zgusi: Matyoqub Qo‘shjonov ijodi va adabiy obzorlar	66
14	Maxmudova Robiyabonu Furqatovna	Vitaliy Zakrutkin ijodida ona timsoli	71
15	Hamzayeva Zebo Murodjon qizi	“Tess D’erbervillning nasabi” va “Bonu”: janrning ikki ko‘rinishi sifatida	74
16.	Matkurbanova Oygul Mamatsalayevna	Hikoyada mavzu va g‘oya uyg‘unligi	78